



## TURIZMDA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASH VA BOSHQARISH OMILLARI (Tezis)

*Qutlimurotov Fayzullo Sadulayevich*

*“Alfraganus university” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti,  
Xalqaro turizm menejmenti kafedrasida katta o‘qituvchisi.*

*E-mail: [fayzula2023@mail.ru](mailto:fayzula2023@mail.ru)*

Mamlakat iqtisodiyotining shakllanish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda ma’lum bir darajada o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etib, sifat ko‘rsatkichlarida o‘z aksini topadi. Mamlakatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar eng avvalo iqtisodiy islohotlarning izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida ko‘zga tashlanib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotning muhim tarmog‘i hisoblangan xizmat ko‘rsatish sohalari respublika iqtisodiyotining rivojlanishida, aholini ish bilan ta’minlashda, ularning moddiy farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shuning uchun ham noishlab chiqarish sohalari faoliyatini zamon talablari asosida tashkil etish maqsadida moddiy, jismoniy hamda moliyaviy resurslar ajratilib, uning rivojlanishi uchun zarur chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Hozirgi kunda turizm sohasida malakali kadrlarni tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega. Turizm sohasida kadrlarning professional tayyorgarligini oshirish mamlakatimiz turizmi oldiga qo‘yilgan quyidagi maqsadlarga erishishni ta’minlab beradi:

- *birinchidan*, mamlakatimizga xorijiy turistlarning katta miqdordagi oqimini jalb etish orqali xalqaro doirada bemalol raqobatlasha oladigan turizm sanoatining asosini yaratish;

- *ikkinchidan*, mamlakatimiz turizm sohasining taraqqiy etishi uchun yetarlicha shart-sharoitlarni yaratish hamda chet ellik turistlarda mamlakatimizga tashrif buyurish istagini imkon qadar uyg‘otish;

- *uchinchidan*, turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlar tasavvurida sifatli xizmat ko‘rsatish va buning uchun zaruriy shart-sharoitlar mavjudligi to‘g‘risidagi tushunchani shakllantirish.

Barcha sohalarda kadrlarni professional tayyorlash aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘qitish bo‘lib, uning asosiy maqsadi turistik tashkilotning ishlab chiqarish, tijorat maqsadlariga to‘liq mos keladigan yetarlicha professional darajalarga ega bo‘lgan kadrlar bilan ta’minlashdir. Kadrlarni professional tayyorlash dasturlari tashkilot personalining aniq xususiyatlarini va har bir tashkilot rivojlanishining dolzarb muammolarini hisobga



olgan holda tashkil etilishi kerak. Shuning uchun ham kadrlarni professional tayyorlash jarayonida quyidagi bir qator omillar hisobga olinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi:

- professional tayyorgarlikdan o'tayotgan xodimning yoshi qanchalik katta bo'lsa, unga shunchalik ko'p darajada individual yondashuvni rivojlantirish kerak;

- katta yoshdagi xodimlarni o'qitishning deyarli zamonaviy va faol shakllariga duch kelishmagan, ana shularga ahamiyat berish kerak.

Turistik tashkilotlar kadrlarini tayyorlash bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

- professional tayyorlash qabul qilingan ma'lumot va tajribalarni faol ravishda qayta ishlab chiqishni tasniflovchi jarayon hisoblanadi;

- professional tayyorlash aniq maqsadga yo'naltirilgan o'qitish jarayoni bo'lib, u ilgari o'zlashtirilgan bilim va tajribalarni tezkorlik bilan yangi bilim va tajribalar bilan almashtirish imkonini beradi;

- professional tayyorlash kadrlarni ham funktsional rivojlanishini hamda xalqaro darajadagi rivojlanishini ta'minlaydi;

- professional tayyorlash tashkilotdagi psixologik muhitga bevosita bog'liqdir.

Umuman olganda, turistik tashkilotlarda kadrlarni professional tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berilishi kerak:

- kadrlarni tayyorlash o'zlarining lavozim yo'riqnomalarida ko'rsatilgan talablarni sifatli bajarishlari uchun zarur bilim va tajribalarni o'zlashtirishlariga imkon yaratadi. O'qitishning maqsadi tashkilot muhitidagi muammolarni atroflicha hal eta oladigan yetuk malakali mutaxassislarni tayyorlashdir;

- kadrlarni professional tayyorlash, ularning bilim va tajribalarini muntazam ravishda yangilab borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi kerak. Bunda tabiiy ravishda xorijiy mamlakatlarda turizm sanoati rivojlanishining ilg'or tajribalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;

- kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning bir tomonlama xarakterga ega eskirgan tizimlarini yangi tarmoqlararo ta'lim tizimlari bilan almashtirishni talab etadi. Bu kadrlarni professional tayyorlashning tamoyillari, strukturasi, maqsadlari va uslublarining zamon talablariga mos ravishda o'zgartirish kerakligidan dalolat beradi va hokozolar.

Ko'rinib turganidek, tashkilotni boshqarish undagi personalni boshqarish bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki, qo'yilgan maqsadlarning bajarilishiga tashkilot xodimlari to'g'ri yo'naltirilmasa, u holda hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi. Ma'lumki, turistik tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar yoki turistik mahsulotlar faqatgina turistlar tashrif buyurganda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham



turistik tashkilotning personali turistlar bilan o‘zaro munosabat o‘rnatishda eng muhim strategik omil hisoblanadi. Mamlakatimizdagi bozor munosabatlariga o‘tish davrida yuzaga kelgan turistik mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini ta‘minlash muammolarining ustuvorligi ma‘muriy boshqaruv kadrlariga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga, ularning o‘z ish faoliyatiga ijodkorlik ruhida va yuqori darajadagi professionalligi bilan yondashish ahamiyatining oshishiga olib keldi. Buning natijasida personalni boshqarish tamoyillari, usullari va ijtimoiy-psixologik masalalari zamon talablariga mos ravishda o‘zgarib bormoqda hamda xodimlarning turistik tashkilotlar, shu jumladan, xususiy turistik tashkilotlardagi roli oshib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, turistik tashkilotlarning kadrlarini professional tayyorlashda zamonaviy o‘zgarishlarga muvofiq ravishda faoliyat ko‘rsatish kerak. Buning uchun iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning bu boradagi ilg‘or tajribalaridan samarali va oqilona foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2019 yil 13 avgustdagi PF-5781-sonli qarori.
2. Sh.S.Sayfutdinov., M.Z.Nurfayziyeva. Turoperatorlik faoliyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-«Iqtisodiyot» -2021 y.
3. Qutlimurotov F.S. Turizm infratuzilmasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent - TDIU - 2011 y.
4. Никишин Н.А. Туризм и инфраструктура. Учебное пособие. – ВУЗ, СурГПУ. 2019 -г.